

**XADICHA SULAYMONOVA - YOSH YURISTLAR NIGOHIDA.**

*Toshkent davlat yuridik universiteti  
Jinoiy odil sudlov fakulteti 3-bosqich talabasi  
Asila Mashrabjonova*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada akademik olima Xadicha Sulaymonovaning ilmiy merosi hamda uning davlat organlaridagi faoliyatining yosh yuristlar uchun ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** akademik olima, ilmiy meros, yosh yuristlar, adolat, oliy sud.

Markaziy Osiyoning buyuk ayollari tarixiy ro'yxatida O'zbekiston tarixida ilk bora Oliy sudni boshqargan birinchi huquqshunos olima Xadicha Sulaymonova ham bor.

Xadicha Sulaymonova 1913-yil 3-iyun kuni Andijon shahrida tavallud topgan. Jahon Obidova nomidagi Toshkent Sovet qurilishi va huquq institutining yuridik fakultetini tamomlagan. 1938-yil sentabrda Xadicha Sulaymonova Moskva yuridik institutining sovet jinoiyati huquqi kafedrasida aspiranturasiga o'qishga kiradi va 1945-yil 20-iyulda „O'zbekiston SSRning harbiy enterventsiya davridagi jinoyat qonunchiligi va fuqarolar urushi“ mavzusida nomzodlik disertatsiyasini himoya qiladi va huquqshunoslik bo'yicha ilmiy darajaga ega bo'lgan birinchi o'zbek ayoli bo'ladi. Xadicha Sulaymonova 1945-yil sentyabr oyidan Toshkent yuridik instituti jinoyat huquqi kafedrasida dotsenti, mudiri sifatida faoliyatini boshlagan. 1948-1950-yillarda Xadicha Sulaymonova SSSR Fanlar akademiyasining Yuridik institutida doktorant bo'lgan. 1950-yil dekabr oyida „O'zbekiston sovet jinoyat huquqining paydo bo'lishi va rivojlanishi“ mavzusida doktorantlik dissertatsiyasini himoya qilgan va professor unvonini olgan.

Xadicha Sulaymonova davlat hokimiyatlaridagi faoliyat bilan bir qatorda ilmiy pedagogik faoliyat ham olib borgan. Ilmiy ishlari jinoyat huquqi, xususan, O'zbekistonda huquqshunoslik fanining vujudga kelishi va rivojlanishi, xotin-qizlar huquqlari masalalariga bag'ishlangan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Falsafa va huquq institutini, respublika Adliya Vazirligi huzuridagi Sud ekspertizasi ilmiy tadqiqot institutini tashkil etish tashabbuskorlaridan biri hisoblanadi. Xadicha Sulaymonovaning davlat hokimiyati organlaridagi faoliyati ham taqsiqsa sazovor. U Moskva yuridik instituti aspiranti, Toshkent yuridik instituti jinoyat huquqi kafedrasida assistenti, dotsenti, so'ng mudiri, institut rektori vazifasida faoliyat olib borgan. O'rta Osiyo universitetining yuridik fakulteti dekani, O'zSSR Adliya vaziri, O'zSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Adliya komissiyasi raisi hamda 1964-yildan boshlab, Oliy sud raisi bo'lib ishlagan.

Xadicha Sulaymonovaning ilmiy pedagogik hamda davlat organlaridagi faoliyati, hayot yo'li yosh huquqshunoslar tomonidan katta qiziqish bilan o'rganib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-apreldagi PF-5987-son „O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasining 2022-yil 8-noyabrdagi „2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tengligiga erishish strategiyasi va uni 2021-2022-yillarda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturlari ijrosi to'g'risida"gi 128-son qarori 5-bandiga muvofiq Toshkent davlat yuridik universiteti talabalari hamda Universitet qoshidagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litsey o'quvchilariga akademik Xadicha Sulaymonova stipendiyasini tayinlash tartibi belgilangan. Toshkent davlat yuridik universitetida Xadicha Sulaymonova muzeyi tashkil etilgan. Xadicha Sulaymonova nomidagi stipendiyani qo'lga kiritish uchun talabalar hozirgi kunda, olimaning hayoti, uning ilmiy va pedagogik faoliyati hamda davlat organlaridagi faoliyatini keng miqyosida o'rganib kelmoqdalar. Toshkent davlat yuridik universitetida olimaning ilmiy faoliyatiga bag'ishlangan tanlovlar va tadbirlar bo'lib o'tmoqda, talabalar tomonidan maqolalar nashr qilinmoqda.

Sho'roviy tuzum hukmron bo'lgan paytda, dunyo quruqlik maydonini oltidan birini egallagan davlat hukmron bo'lgan payti o'zbek oilasida, sharq oilasida, O'zbekistonda tug'ilib, voyaga yetib, o'sha paytdagi Ittifoq bosh prokurorining huzurida suhbatda qatnashib, o'zining pozitsiyalarini, millatni, millat bolalarini, millat farzandlarini oqlaymizmi, qoralaymizmi degan masala kun tartibida turgan paytda o'zining xos, holis pozitsiyalarini ayta olgan. Mening nazarimda, har bir huquqshunos bo'lishni niyat qilgan va ushbu sohada faoliyat olib bormoqchi bo'lgan qizlar, nafaqat qizlar balki yigitlar ham, Xadicha Sulaymonovaning faoliyatini keng o'rganishi, uningdek bo'lishga intilishi kerak. Sababi, Xadicha Sulaymonova mamalakatimiz tarixidagi tahlikali vaziyatda huquqshunoslik bo'yicha faoliyat olib borib, adolatni ta'minlashga harakat qilgan. Uning qilgan ishlari hammamizga o'rnak bo'ladi desam, hech mubolag'a qilmagan bo'laman. Sudyalik vazifasini bajarish, doimo adolatli bo'lish albatta oson ish emas. Ayol kishining esa, ushbu sohada hammaga o'rnak bo'ladigan tarzda va uzoq yillar mobaynida ushbu sohada faoliyat olib borgani ilm-fan rivoji, huquqiy davlat barpo etishdagi harakatlari, ibratli hayot yo'li albatta taqsiqga sazovor.

Xadicha Sulaymonovaning hayot yo'lini o'rganish davomida, uning qanchalar qat'iyatli va oqila ayol bolganiga guvoh bo'ldim. Ko'p vaziyatlarga uning o'z qarorlarida va fikrlarida qat'iy turgani va doimi adolat bilan ish tutgani uning naqadar qat'iyatli bo'lganligidan dalolat beradi. Xadicha Sulaymonova o'z hayot yo'li davomida hammamizga o'rnak bo'ladigan ishlarni amalga oshirdi. Bizga juda katta

ilmiy meros tashlab ketdi. Huquqshunoslik yo'nalishi bo'yicha maktab yaratib ketdi desam hech ham mubolag'a bo'lmaydi.

Hozirda respublika sud ekspertizasi markaziga Xadicha Sulaymonova nomi berilgan. Toshkent davlat yuridik universitetida Xadicha Sulaymonova muzeyi tashkil etilgan. Hamda Toshkent ko'chalaridan biriga Xadicha Sulaymonova nomi berilgan.